



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING QARORI

2026-yil 24-aprel

№ 2123

Ayrim sudyalarni lavozimidan ozod etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 79-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq:

Eshmirzayev Zoxidjon Muxammadiyevich - yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Masharifov O'ktamjon Zarifbayevich - odil sudlovni amalga oshirish chog'ida qonuniylikni buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 10-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Xorazm viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Shovot tuman sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Mirzayev Otabek Ibragimovich - Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 10-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Toshkent viloyati Nurafshon tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Mirzaabdullayev Umarjon To'liqinboyevich - yozma arizasiga binoan hamda Sudyalar odobi kodeksining talablarini buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2, 10-bandlariga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Andijon viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov